

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

KORRUPSIYA NIMA VA U BILAN QANDAY KURASHISH KERAK

Baykabilova P.A.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Falsafa va milliy g'oya kafedrasi katta o'qituvchisi. Toshkent, O'zbekiston.

Mirzayev B.B.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Elektronika va avtomatika fakulteti 3-bosqich talabasi. Toshkent. O'zbekiston.

Jumayev O.X.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Elektronika va avtomatika fakulteti 3-bosqich talabasi. Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiya taraqqiyot kushandasi, korrupsiya so'zining ma'nosi, rivojlanayotgan davlatlarda korrupsiyaga oid ma'lum da'volar, korrupsiya muammosini jamoatchilik e'tirof etish va muhokama qilish avj olib borishligi, ta'lim sohasidagi korrupsiya va uni bartaraf etish usullari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, demokratiya, terrorizm, monopoliya, ta'lim, siyosat, mansabdor, oq korrupsiya, qora korrupsiya.

Korrupsiya - mamlakat xavfsizligiga jiddiy tahdiddir. Bu jamiyatga, xalqga katta zarar yetkazadi. Hokimiyat, davlat faoliyati samaradorligini pasaytiradi va shahar, viloyat hokimiysi va ularning sha'niga katta putur yetkazadi, umuman olganda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi. Korruptsiya fuqarolarning huquqiy ongini buzadi, ularda mansabdor shaxslarga pora berish orqali shaxsiy va jamoaviy manfaatlarni qondirish imkoniyati to'g'risidagi tasavvurni uyg'otadi.

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari juda ko'p. Ular orasida qonunchilikning nomukammalligi, tushunish qiyin bo'lgan ko'plab qonunosti hujjalaring mavjudligi, past huquqiy madaniyatga fuqarolar, shuningdek,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ularning passivligi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ishonchszilik, qonunga rioya qilish uchun motivatsiyaning yo'qligi va shular kabilarni misol qilish mumkin.

Ma'lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o'zi belgilaydi. Shulardan kelib chiqib, 2017 yil 3 yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. Mazkur Qonuning 3-moddasida korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga doir tushunchalarga ta'rif berilgan, ya'ni korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir. Mazkur Qonun o'z navbatida, fuqarolarga korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbazarlikning nima ekanligi va ularning salbiy illatlari haqida ma'lumot beradi.

Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya – hozirda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud bo'lgan dolzarb muammodir. Bu turdag'i korrupsiya jinoyatlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni qonun ustuvorligini ta'minlashi lozim bo'lgan kishilar sodir etadi.

Dunyo miqoyosida korrupsiya "balli" reytingda belgilangan.

Reyting ro'yxatidagi mamlakatlar Odan 100 ballgacha baholangan bo'lib, eng korrupsiyalashgan mamlakat «0»dan boshlanadi, eng kam korrupsiyalashgan mamlakat esa «100» ballgacha baholanadi. Quyida bir nechta mamlakatlarning ushbu reytingdagi Ballari bilan tanishamiz:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3-o‘rin. Finlandiya — 85 ball:

Sifatli ta’lim, fuqarolik erkinliklari va yuqori turmush darajasiga ega mamlakat. Aholi jon boshiga YaIM (Yalpi ichki mahsulot) 2017 yilda 42 502 dollarni tashkil etgan.

2-o‘rin. Daniya — 88 ball:

Daniya 2017 yilda turmush darajasi sifati bo‘yicha dunyoning eng yetakchi davlatlaridan biri hisoblanadi. Daniyada aholi jon boshiga YaIM 47 992 dollarga to‘g‘ri keladi. Mamlakat iqtisodiyoti juda rivojlangan bo‘lib, fuqarolari yuqori turmush darajasi, sifatli ta’lim va tibbiyot tizimi, erkinliklar, demkoratiya va yuqori ish haqi bilan ta’minlangan.

1-o‘rin. Yangi Zellandiya — 89 ball:

Yangi Zelandiya dunyodagi eng kam korrupsiyalashgan mamlakat hisoblanadi. Yangi Zelandiya iqtisodiyoti asosini turizm, vino, go‘sht va sut mahsulotlari eksporti tashkil etadi. Aholi jon boshiga YaIM 38 075 dollarni tashkil etadi.

Tashkilot reytingidan o‘rin olgan O‘zbekiston esa (21 ball) Kamboja, Kongo Demokratik Respublikasi bilan birgalikda 156-o‘rinni band etib turibdi. O‘zbekistonning o‘tgan yilgi bu boradagi ko‘rsatkichi 19 ballga teng bo‘lgan edi. Respublikaning Markaziy Osiyodagi yonqo‘snilari bo‘lgan Tojikiston 25 ball to‘plab 151-o‘rinni, Turkmaniston 22 ball bilan 154-o‘rinni band etgan. Qirg‘izistonning bu boradagi ko‘rsatkichi birmuncha yuqori, u 28 ball bilan 136-o‘ringa joylashgan.

Hozirgi globallashuv zamonida korrupsiyaga qarshi nafaqat bir davlat doirasida, balki xalqaro darajada ham kurashish zaruryati yanada oshdi. Binobarin, korrupsiya hech bir davlatga foyda keltirmaydi, aksincha, mamlakatdagi demokratik islohotlarga, mamlakatning xalqaro maydondagi imiji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, korrupsiyani yo‘qotish yo‘lida har birimiz kurashishimiz kerak. O‘z mehnat faoliyatimizda halol bo‘lishimz va har qanday korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz munosabatimizni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bildirishimiz kerak. Unutmaylikki, korrupsiya – taraqqiyot dushmani. Unga qarshi kurashish har birimizning burchimizdir. Albatta, korrupsiya illati qisqa fursatda barham beriladigan muammo emas. Unga qarshi aholida sog‘lom fikr shakllanib, davlat va jamiyat hamkorlikda kurashilsagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. ЧТО ТАКОЕ КОРРУПЦИЯ И КАК С НЕЙ БОРОТЬСЯ /автор-сост. Э.И.Атагимова. — М. : ФБУ НЦПИ при Минюсте России 2015.— 40 с. — Серия «Правовое просвещение населения»..
2. 3. Baykabilova P.A Mamatmuminov O.M *THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN SOCIETY. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st December, 2023) –INDIA, New Delhi : "CESS", 2023. Part 16 – 256p.
4. [https://n
bu.uz/uz/articles-about-activities/korrupsiya-taraqqiyot-kushandas/](https://nbu.uz/uz/articles-about-activities/korrupsiya-taraqqiyot-kushandas/)
5. [https://t
uit.uz/post/korrupsiya-va-milliy-taraqqiyot-muammo-va-yechim](https://uit.uz/post/korrupsiya-va-milliy-taraqqiyot-muammo-va-yechim)
6. [http://w
ww.insonhuquqlari.uz/oz/news/m9490](http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m9490)